



maktabgacha  
va maktab ta'lifi bo'limi tasarrufidagi  
—umumi o'rta ta'lim maktabi

**8-“ ” SINF RAHBARI**

**ning**

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining  
34 yilligiga bag'ishlangan

**“Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!”**

shiori ostida tayyorlagan bir soatlik

# **DARS ISHLANMASI**



**Dars shiori: “Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!”**

**Darsning mavzusi: Vatan uchun yashaylik!**

**Darsning maqsadi:**

- o‘quvchilarning Vatanimiz o‘tmishi, buguni va kelajagi haqidagi bilimlarini rivojlantirish va so‘ngi to‘rt yil ichida ro‘y bergan o‘zgarishlar haqida tushuncha berish.
- o‘quvchilarning o‘tmish, bugun va kelajak o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqligini anglashlariga, bu haqda mushohada yuritishlariga turki berish;
- tasavvur qilish qobiliyatini shakllantirish, mustaqil, erkin fikrlashlariga erishish, guruhlarda hamkorlikni tashkil etish.

**Tayanch kompetensiya elementlari:**

**Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:** televizor, rдиyo, telefon orqali berilgan xabarlarni gapirib bera olish.

**O‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasi:** kattalarni hurmat qilish, ularning nasihatiga amal qilish, jamoat joylarga o‘zini tuta bilish.

**Milliy va umummadaniy kompetensiyasi:** milliy bayramlarni, milliy qadriyatlarni, o‘zi yashab turgan tarixiy obidalarni bilish va bir-biridan farqlash.

**Darsning jahozi:** Darslik, Vatanimizning diqqatga sazovor joylari aks etgan rasmlar, davlatimiz ramzları rasmları, turli xil shiorlar, A 4 format, marker, elektron ko‘rgazmalar

**Darsning turi:** bahs-munozaralarga asoslangan interfaol dars.

**Darsning metodi:** ”Tilak”, ”Soat mashqi”, ”Baliq skeleti”, ”O‘zbekiston daraxti”, ”Ortiqchasini top”, ”Sinkveyn” metodlari.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat Madhiyasi ijro etiladi.

**Dars jarayoni:** Aziz o‘quvchilar, biz bugun taqdirding ulug‘ ne’mati bo‘lgan istiqlolimizning 34 yilligini nishonlamoqdamiz. Mustaqillik xalqimizning XX asr so‘ngidagi buyuk tarixiy yutug‘idir. Shu 34 yil ichida siz – u biz istiqlol ne’matlaridan bahramand bo‘ldik. Istiqlol tufayli unutilayotgan ma’naviy qadriyatlarimizni tikladik.

Bugun siz bilan

“**Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!**” mavzusida fikrlashamiz, uning porloq va yorqin kelajagi to‘g‘ risidagi bilimlarimizni boyitamiz.

**O‘qituvchi:** Har bir inson o‘z ona Vatanining o‘tmishini, bugungi taraqqiyotini bilishi va uning kelajagi yanada porloq bo‘lishi uchun men nima qilishim lozim, degan savolni o‘ziga berishi kerak. Kelinglar, bu savollarga birgalikda javob izlaymiz. Menda bir taklif bor. Unga ko‘ra har bir o‘quvchi o‘z istaklarini do‘słtari bilan o‘rtoqlashadi va birgalikda Vatanimizning yaqin o‘tmishi, hozirgi kuni, kelajagi haqida fikrlari, o‘y – xayollari haqida suhbatlashadi.

“**Tilak**” mashqi o‘tkaziladi. Bunda o‘quvchilar aylanma shaklda turib, yonidagi sherigiga “Men sizga chin yurakdan (baxt, taxt, omad, xush kayfiyat) tilayman”, deydi. Sinfdagagi barcha o‘quvchilar o‘z sheriklariga tilaklarini bildiradi.

“**Soat mashqi**” Bunda o‘quvchilar bir-ikki-uchga sanalib, ikkilar bir qadam oldinga, uchlar bir qadam orqaga chiqadi. Sinf uch guruhga ajratib olinadi. Ular o‘qituvchi belgilagan muddatda qo‘llarini bir – biriga urgunga qadar sheriklariga Vatan, O‘zbekiston davlati, davlat ramzları haqida ma’lumot beradilar. Demak, hosil qilingan aylana bo‘ylab mashg‘ulot davom ettiriladi.

## 1-guruh Vatan so‘zini ta’riflaydi:

- 1-o‘quvchi: -Vatan –ota-onamiz
- 2-o‘quvchi: - Vatan –katta bo‘lgan beshigimiz
- 3-o‘quvchi: - Vatan – yashab turgan xonadonimiz
- 4-o‘quvchi: - Vatan – ta’lim olayotgan maktabimiz.
- 5-o‘quvchi: - Vatan – qishlog‘imiz, so‘lim go‘shamiz
- 6-o‘quvchi: - Vatan- mustaqil O‘zbekistonimiz.
- 7-o‘quvchi: - Vatan-taqdirimiz, baxtimiz.
- 8-o‘quvchi: - Vatan-tayanchimiz, iftixorimiz.
- 9-o‘quvchi: - Vatan-qadr-qimmatimiz.
- 10-o‘quvchi:- Vatan-nurli kelajagimiz.

## 2-guruh:Davlat ramzlari haqida tushuncha beradi.

## 3-guruh:Vatan haqida she’rlar va maqollar:

**1-o‘quvchi:** Bir o‘lka bor ertak misoli,  
Go‘zallikda tengi yo‘q makon.  
Maftun etgan meni jamoli,  
Qo‘shiqlarim unga armug‘on,  
Bu ona yurt-O‘zbekistonim.  
Iftixorim, shavkatim-shonim,  
Ona yurtim-O‘zbekistonim.

**2-o‘quvchi:** Tuprog‘i zar,toshi bebafo,  
Poyoni yo‘q yashil o‘tloqlar.  
Daryolarni shoshirar hatto,  
Tog‘laridan sizgan buloqlar.  
Bu ona yurt-O‘zbekistonim.  
Iftixorim,shavkatim-shonim,  
Ona yurtim-O‘zbekistonim.

**3-o‘quvchi:** Bog‘u rog‘i saxiydan saxiy,  
Mevalarin sharbatli asal.  
Xirmoniday rizqi mo‘l,boqiy,  
Eli mezbon-mehmonga mahtal.  
Bu ona yurt-O‘zbekistonim.  
Iftixorim,shavkatim-shonim,  
Ona yurtim-O‘zbekistonim.

**4-o‘quvchi:** Bulbul chamanni sevar, odam-Vatanni.

**5-o‘quvchi:** Vatani borning baxti bor.  
Mehnati borning taxti.

**6-o‘quvchi:** Ona yerning tuprog‘i-ona sutidan aziz.

**7-o‘quvchi:** Baliq suv bilan tirik, odam-el bilan.

**8-o‘quvchi:** Vatanni sotgan er bo‘lmas.

**9-o‘quvchi:** Ona yurting-oltin beshiging.

**10-o‘quvchi:** O‘zga yurda shoh bo‘lguncha,  
O‘z yurtingda gado bo‘l.

O‘quvchilar belgilangan joyga o‘tirib oladilar.

O‘qituvchi: Haqiqiy vatanparvar,



Bilar o‘z tarixi.

Ona vatan ramzlarin,

So‘zlangchi ta’rifini.

1-o‘quvchi: 1989-yil 21-oktyabrdan o‘zbek tiliga “Davlat tili” maqomi berilgan.

2-o‘quvchi: Ona tili, onajon tilim,

Sen men uchun jonajon tilim.

Bu tilning har kalomi ulug‘,

Ulug‘dirki salomi ulug‘.

3-o‘quvchi: 1991-yil 31-avgustda O‘zbekiston mustaqillikka erishdi.

1-sentabr-“Mustaqillik bayrami” deb e’lon qilindi.

4-o‘quvchi: Istiqlol tufayli keldi yurtga erk,

Istiqlol tufayli o‘zgardi o‘lkam.

O‘zbekni ayladi o‘z elida bek,

O‘zbekiston bo‘ldi chindanda ko‘rkam.

O‘quvchi: 1991-yil 18-noyabrdan O‘zbekiston Respublikasining Davlat Bayrog‘i

tasdiqlandi.

(O‘zbekiston Respublikasi bayrog‘i ko‘rsatiladi).

Mustaqil yurtimning rangin bayrog‘i,

Balandroq xilpira besh qit‘a osha.

Ko‘rganda quvonsin o‘zbek qarog‘i,

Butun dunyo xalqi qilsin tomosha.

O‘quvchi: 1992-yil 2-iyulda Davlat Gerbi qabul qilingan.

O‘quvchi: Gerbdagi Xumo qushi,

Baxt-ozodlik elchisi.

Paxta va bug‘doy esa,

Risq-ro‘zimiz belgisi.

Daryo, tog‘ hamda quyosh,

Tabiatga ishora.

O‘zbekiston davlatim,

Yuksalaver tobora!



O'quvchi: (O'zbekiston Respubliasi Konstitutsiyasi kitobini ko'targan).

1992-yil 8-dekabarda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan.

8-dekabr-Konstitutsiya kuni.

Baxtimiz qomusi erur bu hujjat,

Unda mujassamdir haq-huquqimiz.

Huquqni bilaylik, lekin avvalo,

Unutmaylik fuqarolik burchimiz.

O'quvchi: 1992-yil 10-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasiga ega

bo'lgan.

Ona yurt madhiyasin,

Kuylagayman jarangdor.

Madhiyamda onamning,

Allasiday sehr bor.

**O'qituvchi:** Aziz bolajonlar,yurtboshimiz 2020-yilni qanday nomladilar?

**O'quvchilar:** Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili  
guruhi:**"O'zbekiston daraxti"**metodi.

**O'qituvchi:**O'zbekistonni yam-yashil daraxtg'a qiyoslaymiz va unga O'zbekistonga  
atalgan tilaklarni yozamiz.



**guruhi:****"Baliq skeleti"**mashqi.


**"O'zbekiston mening tasavvurimda"**

guruhaning "Sinkveyn" metodi yordamida Vatan so'zini ta'riflashadi.



### "Sinkveyn" metodi.

- "Sinkveyn" fransuzcha so'z bo'lib "besh qator" degan ma'noni bildiradi.
- 1. Ot (1 so'z)
- 2. Sifat (2 so'z)
- 3. Fe'l (3 so'z)
- 4. Ipora, Tasviriy ifoda (gap bilan ta'rifi beriladi)
- 5. Sinonimi (1 so'z yoziladi),  
• 1-qatorda yozilgan so'z bilan ma'nosi bir xil bo'lsin).



Masalan: 1. Vatan

2. Bag'rikeng, serquyosh.
3. O'stiradi, kiydiradi, yediradi.
4. Kindik qonimiz to'kilgan tuproq.
5. Diyor.

Ular yozgunga qadar uch guruhdan uch o'quvchi chiqib, "Mening Vatanim" mavzusida xattaxtaga rasm chizadilar va tayyor bo'lgan guruhlar taqdimot o'tkazishadi.

"O'zbekistonim" qo'shig'i.(Raqsda qizlar jamoasi)

**"Ortiqchasini top"** metodi. Har bir guruh o'ziga berilgan namunalardan ortiqcha so'zni topadi.



- Obod
- Toza
- Saranjom
- Yagonasan
- Sarishta
- Chinni-yu chiroq




Ortiqcha so'zlar xattaxtaga yozib boriladi, ular ma'nosi ochiladi va hosil bo'lgan gap o'qiladi:

**Yagonasan muqaddas Vatanim!**

**Uyga vazifa:** "Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!" mavzusida erkin fikrlarni daftarlariiga tushurib kelishlarini berish.

**Baholash:** O'quvchilar faolligi uchun guruhlarning har biri darsdagi ishtiroki asosida "Eng bilimdon", "Eng zukko", "Eng inoq" nomlari bilan rag'batlantiriladi.

Dars yakunida "Nima uchun Vatanimizni sevamiz?" savoliga o'quvchilardan javob olinadi. So'ngra birgalikda "Men nechun sevaman O'zbekistonni?" qo'shig'i kuyylanadi.

  
[www.idum.uz](http://www.idum.uz) veb-sayti ma'muriyati  
hamkorlik va taqdim etilgan fayllar uchun  
[www.zokirjon.com](http://www.zokirjon.com) sayti ma'muriyatiga o'z  
minnatdorchilik bildiradi

[www.zokirjon.com](http://www.zokirjon.com) saytidan kerakli fayl va  
hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

**Ma'lumot uchun telefonlar:**  
+998905306866, +998913977737

Yoki telegram orqali yozishingiz mumkin:  
**@nza456 yoki @nza445**